

TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA OPERATSIYALARI HISOBI VA AUDITI

Xudayarov Oybek Odilovich

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank hisobi va auditi” kafedrası PhD.,
dotsenti Email: o.khudoyorov@tsue.uz*

Tursunov Nurbek Yusuf o‘g‘li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank hisobi va auditi” kafedrası magistranti
Email: nurbek_0702@icloud.com*

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobini yuritish va auditi jarayonlarini ilmiy tahlil qiladi. Maqolada valyuta operatsiyalarining moliyaviy va normativ jihatlarini, hisob-kitoblarni yuritish usullari, shuningdek audit tadbirlari va O‘zbekiston Respublikasida valyuta operatsiyalariga oid statistik ko‘rsatkichlari batafsil o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, banklar faoliyatidagi valyuta operatsiyalarining aniqligi va shaffofligi moliyaviy barqarorlik va mijozlar ishonchi uchun muhim omil hisoblanadi. Maqolada real bank amaliyoti misollar orqali valyuta operatsiyalari auditi samaradorligi ko‘rsatildi.

Kalit so‘zlar: tijorat banki, valyuta operatsiyasi, valyuta hisoboti, audit, moliyaviy nazorat, xorijiy valyuta, bank amaliyoti, moliyaviy barqarorlik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье проводится научный анализ процессов ведения учета и аудита валютных операций в коммерческих банках. В статье подробно изучаются финансовые и нормативные аспекты валютных операций, методы ведения расчетов, а также аудиторские мероприятия и статистические показатели валютных операций в Республике Узбекистан. Согласно результатам исследования, точность и прозрачность валютных операций в деятельности банков являются важным фактором финансовой стабильности и доверия клиентов. На основе примеров из реальной банковской практики в статье продемонстрирована эффективность аудита валютных операций.

Ключевые слова: коммерческий банк, валютная операция, валютная отчетность, аудит, финансовый контроль, иностранная валюта, банковская практика, финансовая стабильность.

ANNOTATION

This article provides a scientific analysis of the accounting and auditing processes of foreign currency operations in commercial banks. The study examines the financial

and regulatory aspects of currency transactions, methods of maintaining settlements, as well as audit procedures and statistical indicators of foreign exchange operations in the Republic of Uzbekistan. According to the research findings, the accuracy and transparency of foreign currency operations are crucial factors for financial stability and customer trust in banking activities. Using examples from real banking practice, the article demonstrates the effectiveness of auditing foreign currency operations.

Keywords: commercial bank, currency transaction, currency reporting, audit, financial control, foreign currency, banking practice, financial stability.

KIRISH

Tijorat banklarining moliyaviy faoliyatida valyuta operatsiyalari muhim o‘rin tutadi. Global iqtisodiy aloqalar va xalqaro moliyaviy bozorlar bilan integratsiya jarayonida banklar mijozlarning turli valyutalardagi mablag‘larini qabul qilish, hisob-kitoblarni amalga oshirish va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi¹. Shu bilan birga, valyuta operatsiyalari bank uchun moliyaviy risklar manbai bo‘lib, ular nafaqat valyuta kurslarining o‘zgarishiga, balki ichki nazorat va auditning samaradorligiga ham bog‘liqdir.²

O‘zbekiston iqtisodiyotining jadal modernizatsiya jarayonida xalqaro moliya bozorlariga integratsiyalashuvi, xorijiy investitsiyalar oqimining ortib borishi, eksport salohiyatining kengayishi va milliy valyuta bozorining bosqichma-bosqich liberallashtirilishi natijasida tijorat banklarining funksional imkoniyatlari ham sezilarli darajada kengaydi. Banklar bugungi kunda nafaqat milliy valyutada, balki erkin konvertatsiya qilinadigan valyutalarda ham keng ko‘lamli operatsiyalarni amalga oshirmoqda. Bunday operatsiyalarni to‘g‘ri va ishonchli tarzda hisobga olish, ularda uchrashi mumkin bo‘lgan moliyaviy risklarni aniqlash va baholash, shuningdek, ularning amaldagi qonunchilik talablariga muvofiqligini tekshirish esa zamonaviy audit xizmatining ustuvor vazifalaridan sanaladi.

Ushbu maqolaning maqsadi tijorat banklarida valyuta operatsiyalarini hisobga olish tizimi, audit metodologiyasi va amaliy natijalarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, so‘nggi yillarda xorijiy valyutaga bo‘lgan talabning ortishi va moliyaviy bozorlarning o‘zgaruvchanligi banklar faoliyatida aniq va shaffof hisob-kitob yuritishni talab qilmoqda.

Valyuta operatsiyalarining alohida xususiyati shundaki, ularda kurs farqlari, foiz stavkalari o‘zgarishi, tashqi iqtisodiy omillar ta’siri, transchegaraviy to‘lovlar tezligi, xalqaro moliya tashkilotlarining talab va me’yorlari, shuningdek, IT-infratuzilmaning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki — Valyuta nazorati va operatsiyalar bo‘yicha yo‘riqnom — Toshkent, 2021. — B. 5-34.

² Abdukarimov R. — Tijorat banklari moliyaviy hisobi — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2019. — B. 45-78.

imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Shu sababli valyuta operatsiyalarini yuritish jarayoni an'anaviy milliy valyutadagi operatsiyalarga nisbatan murakkabroq bo'lib, yuqori malakali mutaxassislar, puxta hujjatlashtirish, zamonaviy axborot tizimlari hamda kuchli audit nazoratini talab qiladi. Ayniqsa, elektron to'lov tizimlari, SWIFT orqali o'tkazmalar, onlayn konvertatsiya amaliyotlari va xalqaro banklararo hisob-kitoblar kengaygan bugungi kunda auditning ahamiyati yanada oshmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevni shaxsiy tashabbusi bilan 2017 yil 2-sentyabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5177 –sonli Farmon qabul qilindi. Ushbu farmonda amaldagi valyutani tartibga solish tizimini tubdan isloh qilish, valyuta siyosatini liberallashtirish, barcha tadbirkorlik subyektlariga tashqi savdo faoliyatini amalga oshirishda teng sharoitlar yaratishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur Farmoni qabul qilinishiga mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirish, ishbilarmonlik va investitsiya muhitini yaxshilash, xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga to'sqinlik qilayotgan qator muammo va kamchiliklar mavjudligi asosiy sabab bo'ldi. Shu bilan birgalikda ushbu farmonda banklar tomonidan aholi bilan valyuta ayirboshlash operatsiyalarini sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida:

- jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasini sotib olish va sotish tartibini soddalashtirish;
- bayram va dam olish kunlarida valyuta ayirboshlash shoxobchalarining uzaytirilgan ish tartibini joriy qilish;
- tijorat banklarining filiallari va minibanklarida, ayniqsa, yirik savdo markazlari va bozorlarda qo'shimcha valyuta ayirboshlash shoxobchalarini ochish;
- konversiy bo'limlar orqali chet el valyutasini sotishda olinadigan vositachilik haqi miqdorini imkon darajasida pasaytirish choralari ko'rish;
- xalqaro to'lov kartalaridan xorijda foydalanishda mavjud barcha cheklovlarni bekor qilish nazarda tutilgan.

O'zbekistonda valyuta operatsiyalari yuritilishi va audit bo'yicha normativ-huquqiy asoslar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli qaror va yo'riqnomalarida bayon etilgan. Shuningdek, xalqaro tajriba va audit standartlari (IFRS, ISA) tijorat banklari faoliyatini nazorat qilishda qo'llaniladi.³

Valyuta operatsiyalari tijorat banklari faoliyatining ajralmas va muhim qismi bo'lib, ularning xalqaro iqtisodiy aloqalardagi ishtirokini ta'minlaydi. Ushbu operatsiyalar murakkab buxgalteriya hisobini, qat'iy ichki nazoratni va mustaqil auditni

³ Islomov S. — Valyuta operatsiyalari va audit — Toshkent: Moliyaviy nashriyot, 2020. — B. 12-56.

talab qiladi, chunki ular valyuta tavakkalchiligi (risk), pul yuvishga qarshi kurash (AML) talablari va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bilan bevosita bog'liqdir. Valyuta operatsiyalarining to'g'ri hisobi va auditori bankning moliyaviy barqarorligi, shaffofligi va milliy hamda xalqaro regulyatorlarning talablariga rioya etilishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Tijorat banklarida amalga oshiriladigan valyuta operatsiyalari keng qamrovli bo'lib, ular asosan ikki guruhga bo'linadi: mijozlarning operatsiyalari (masalan, valyuta ayirboshlash, xalqaro pul o'tkazmalari, eksport-import operatsiyalarini moliyalashtirish) va bankning o'z valyuta operatsiyalari (masalan, valyuta pozitsiyasini boshqarish, xalqaro bozorda likvidlikni ta'minlash, valyuta svoplari va forward shartnomalari kabi derivativlar bilan ishlash). Valyuta operatsiyalarining huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasining "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni, Markaziy bankning normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVF) qoidalar va xalqaro bank amaliyotiga asoslangan bo'ladi.

Valyuta operatsiyalari hisobining markaziy qismi valyuta kurslari farqlarini hisobga olish bilan bog'liq. Bu farqlar ikki asosiy guruhga bo'linadi: operatsion farqlar va qayta baholash farqlari. Operatsion farqlar chet el valyutasidagi tranzaksiya (masalan, tovar sotib olish yoki kredit berish) va uning hisob-kitob qilingan sanasidagi valyuta kurslari o'rtasidagi farq natijasida yuzaga keladi va odatda darhol foyda yoki zararga kiritiladi. mumkin. Shuning uchun, buxgalteriya siyosatida qayta baholash tartibi va kurslarni aniqlash metodikasi aniq belgilanishi shart.

Metodologik jihatdan maqola sifatida quyidagi yondashuvlardan foydalanildi:

Normativ-huquqiy tahlil: valyuta operatsiyalariga oid qonun va qarorlarning amaliyotga ta'sirini o'rganish.

Hisob metodlari tahlili: banklarda valyuta operatsiyalari hisobini yuritishning amaliy usullari va hujjatlari tahlil qilindi.

Audit tadqiqotlari: valyuta operatsiyalarining moliyaviy hisobotlarda aks etishini va auditor nazorati samaradorligini o'rganish.

Shuningdek, real tijorat banki amaliyotidan olingan ma'lumotlar tahlil qilindi va ikki jadval orqali natijalar vizual ko'rinishda taqdim etildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi bir nechta asosiy yo'nalishlardan iborat:

Xarid va sotuv operatsiyalari (valyuta ayirboshlash, spot va forward kontraktlar);

Valyuta hisobvarag'lari bilan ishlash (mijozlar mablag'larini qabul qilish va chiqarish);

O'zbekiston Respublikasi hududida rezidentlar va norezidentlar tomonidan chet el valyutasini sotib olish hamda sotish faqat O'zbekiston Respublikasi banklari orqali amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida banklararo valyuta bozorida chet el valyutasini sotib olish va sotish faqat O'zbekiston Respublikasi banklari hamda Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi.


1-jadval.

Operatsiya turi	Debit (valyuta hisobvaraqlari)	Kredit (valyuta hisobvaraqlari)	Izoh
Valyuta sotib olish	USD hisobvaraqlari	Naqd pul hisobvaraqlari	Spot operatsiya
Valyuta sotish	Naqd pul hisobvaraqlari	EUR hisobvaraqlari	Mijoz uchun ayirboshlash
Xorijiy valyuta depoziti	EUR hisobvaraqlari	Mijoz depozit hisobvaraqlari	Qo'yilgan depozit

Valyuta operatsiyalarini hisobga olishda banklar double-entry accounting (ikki tomonlama yozuv) tizimidan foydalanadi. Har bir operatsiya valyuta kursi va konvertatsiya bo'yicha qayd etiladi.

2-jadval.

2023-2024-yillarda jismoniy shaxslarning valyuta ayirboshlash operatsiyalari hajmi



Manba: Markaziy bank ma'lumotlari

Hisobot yilida banklar jismoniy shaxslardan jami 16,1 mlrd dollar ekvivalentida (2023-yilga nisbatan +31%) xorijiy valyuta sotib olgan bo'lsa, jismoniy shaxslarga 9,4 mlrd dollar (+3%) sotilgan va valyuta ayirboshlash operatsiyalarining ijobiy saldosi 6,7 mlrd dollarni (+2,1 barobar) tashkil etdi.

Jismoniy shaxslardan xarid qilingan chet el valyutasining 51 foizi (8,2 mlrd dollar) 1 000 dollargacha bo'lgan tranzaksiyalarga to'g'ri kelgan (2023-yilda 50 foiz yoki 6,1 mlrd dollar) bo'lsa, jismoniy shaxslarga sotilgan valyutaning 73 foizi (6,9 mlrd dollar) 1 000 dollardan yuqori bo'lgan tranzaksiyalar hissasiga to'g'ri kelgan.

Bundan tashqari Markaziy Bank bergan malumotlarga qaraganda xorijdan jismoniy shaxslarning bank kartalariga to'g'ridan-to'g'ri (P2P) o'tkazmalar tezkorligi, qulayligi va nisbatan arzonligi hisobiga ommalashib bormoqda. 2024-yilda P2P (onlayn) tranzaksiyalar soni qariyb 71 mln.tani tashkil etib (2023-yilga nisbatan o'sish 47 foiz), o'tkazmalar hajmining jami kelib tushgan mablag'lar hajmidagi ulushi 40 foizgacha yetdi (2023-yilda 34%). Jismoniy shaxslar tomonidan 2024-yil davomida xorijiy davlatlarga yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi 2023-yilga nisbatan 19 foizga o'sib, 2,8 mlrd dollarni tashkil etdi. O'tkazmalarining 72 foizi 5 ta mamlakat, xususan Birlashgan Arab Amirliklari (590 mln doll), Xitoy (564 mln doll), Rossiya (361 mln doll), Turkiya (336 mln doll) va AQSh (179 mln doll) hissasiga to'g'ri keldi. Bunda, jo'natilgan jami o'tkazmalarining 58 foizi (1,6 mlrd doll) bank o'tkazmalari (SWIFT) va 16 foizi (441 mln doll) P2P (onlayn) tranzaksiyalar orqali amalga oshirilgan.

Valyuta operatsiyalarini audit qilish jarayoni bir necha bosqichdan iborat:

Operatsiya hujjatlarini tekshirish – valyuta ayirboshlash shartnomalari, hisobvaraqlar ko'rsatmalari.

Moliyaviy hisobotlar bilan solishtirish – balans va daromad hisobotlari bo'yicha.

Risklarni baholash – valyuta kursi o'zgarishi, operatsiya kechikishi yoki xato yozuvlar.

3-Jadval.

Tijorat bankida audit natijalari misoli

Audit ko'rsatkichi	Tekshirildi	Topilmalar	Tavsiya
Spot valyuta operatsiyalari	100 ta	2 xato	Xatolarni tuzatish
Depozit va kredit operatsiyalari	50 ta	1 xato	Ichki nazorat kuchaytirilsin
Hisobotdagi valyuta kursi	20 ta	Xato topilmadi	Normal

Mazkur natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi asosan to'g'ri yuritilmoqda, ammo ichki nazoratni kuchaytirish va xatolarni kamaytirish auditorlar tomonidan tavsiya etiladi.

XULOSA

Tijorat banklarida valyuta operatsiyalari hisobi va auditi bank moliyaviy barqarorligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko'ra:

Valyuta operatsiyalari bankning moliyaviy faoliyatini shaffof va aniqlik bilan ko'rsatadi, mijozlar ishonchini oshiradi.

Hisob tizimining to'g'ri tashkil etilishi va normativ-huquqiy bazaga rioya qilish bank faoliyatidagi risklarni kamaytiradi.

Audit jarayoni xatolarni aniqlash va ichki nazorat tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Real bank amaliyotidagi tadqiqotlar natijasida, xatolar asosan hujjatlarni noto'g'ri to'ldirish va valyuta kursi noto'g'ri hisoblashdan kelib chiqadi.

Shu bilan birga, auditorlar va bank xodimlari uchun muntazam trening va normativ o'quv materiallarini ishlab chiqish tavsiya etiladi. Kelajakda valyuta operatsiyalari hisobi va auditi samaradorligini oshirish uchun quyidagi chora-tadbirlar muhim:

Elektron bank tizimlarida valyuta operatsiyalarini avtomatlashtirish;

Ichki audit jarayonini mustahkamlash va xodimlarni malaka oshirish;

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga moslashtirish.

Shunday qilib, tijorat banklarining valyuta operatsiyalari hisobi va auditi nafaqat moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi, balki bankning umumiy faoliyat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdukarimov R. — Tijorat banklari moliyaviy hisobi — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2019. — B. 45-78.
2. Islomov S. — Valyuta operatsiyalari va audit — Toshkent: Moliyaviy nashriyot, 2020. — B. 12-56.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki — Valyuta nazorati va operatsiyalar bo'yicha yo'riqnoma — Toshkent, 2021. — B. 5-34.
4. IFRS Foundation — International Financial Reporting Standards — London: IFRS Publications, 2022. — B. 101-150.
5. Kadirov M. — Tijorat banklarida audit — Toshkent: Moliya nashriyoti, 2018. — B. 33-67.
6. Rahimov T. — Bank auditining nazariy va amaliy jihatlari — Toshkent: TDIU nashriyoti, 2019. — B. 22-49.
7. www.lex.uz O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning 2017 yil 2-sentyabrda "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida" PF-5177 –sonli Farmoni
8. <https://cbu.uz/uz/>. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki rasmiy sayti (yillik hisobot 2024)
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki. "Valyuta operatsiyalarining tartibga solish vanazorat qilish to'g'risida qonunchilik hujjatlari."